O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA’LIM VAZIRLIGI

ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
TEXNIKA UNIVERSITETI

«ELEKTR STANSIYALAR REJIMLARI VA O‘TISH JARAYONLARINING MAXSUS MASALALARI»

fani bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar uchun

USLUBIY QO‘LLANMA

Toshkent – 2016

UDK 621.311.1.016:681.3

Radionova O.V. «Elektr stansiyalar rejimlari va o‘tish jarayonlarining maxsus masalalari» fani bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar uchun uslubiy qo‘llanma. / O‘zR FA akad. T.X. Nasirov tahriri ostida. – T.: ToshDTU, 2016. – 68 b.

Tuzuvchilar: dots. Radionova O.V.,
O‘zR FA akad. Nasirov T.X. tahriri ostida.
Tarjimon: Abdullayev E.A.

«Elektr stansiyalar rejimlari va o‘tish jarayonlarining maxsus masalalari» fani bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar uchun uslubiy qo‘llanmada qisqacha nazariy ma’lumotlar va hisobiy topshiriqning mazmuni yoritilgan. Nazariy va amaliy materiallar elektr stansiyalari va elektr energetika tizimlarining turg‘un rejimlarida matematik uslublarning turli xillarini qo‘llash bilan chiziqlilik va nochiziqlilikni tashkil etishdagi kompleks savollarni qamrab oladi.

Uslubiy qo‘llanma 5A310203 – «Elektr stansiyalari» mutaxassisligi bo‘yicha magistratura talabalari uchun tuzilgan.

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti ilmiy-uslubiy kengashi qaroriga muvofiq chop etildi

Taqrizchilar: t.f.n. Sadullayev E.F. («O‘zelektrtarmoq» UK),
t.f.d., prof. Pirmatov N.B. (ToshDTU).

1. HISOBIY TOPSHIRIQ MUNDARIJASI

Berilgan elektr bog'lanishli sxema uchun (1.1- rasm):

1. Berilgan tarmoq qarshiliklari (1.1-jadval) bo'yicha tugun o'tkazuvchanliklari matritsasini va barcha tugunlarning balanslovchi tugun bilan bog'lanishining o'tkazuvchanlik vektorini tuzish.

2. Berilgan tugunlardagi toklar va balanslovchi tugun kuchlanishi (1.2-jadval) bo'yicha sistemani Gauss (algebraik va jadval ko'rinishida) va triangulyatsiya uslubida yechish yo'li bilan tugunlardagi kuchlanishlarni aniqlash.

3. Gauss (jadval ko'rinishida), faktorizatsiya, topologiya va kommutatsiya uslubida tugun qarshiliklar matritsasini aniqlash va tugunlardagi kuchlanishlarni teskari matritsa uslubida topish.

4. Insidensiya (tugunlar va shahobchalar bog'lanish) matritsasini tuzish va u bo'yicha tarmoqlardagi toklarni aniqlash.

5. Tugunlardagi quvvatlar va tarmoqdagi umumiy quvvat isroflarini aniqlash.

6. Tugunlardagi berilgan quvvat va balanslovchi tugun kuchlanishi bo'yicha quyidagi uslublarda tugunlardagi kuchlanishlarni aniqlash:

– oddiy iteratsiya;
– Gauss-Zeydel;
– Nyuton-Rafson.

Izoh. Hisoblashlarni osonlashtirish maqsadida tarmoqning aktiv qarshiliklarga ega bo'lgan gipotetik sxemasi ko'rib chiqiladi.

Variant nomeri o'qituvchi tomonidan ikkita son ko'rinishida beriladi. Birinchi son bo'yicha 1.1 – jadvaldan shahobchalar qarshiligi, ikkinchi son bo'yicha 1.2 – jadvaldan balanslovchi tugun kuchlanishi va tugunlardagi toklar olinadi.

1.1-jadval. Tarmoqlar qarshiliklari (Om)

Variantlar	**R_{01}**	**R_{12}**	**R_{13}**	**R_{23}**
0	1	3	6	4
1	1	4	5	3
2	2	1	4	8
3	5	8	2	5
4	3	4	1	2
5	3	5	1	4
6	2	2	6	5
7	4	1	7	6
8	4	6	8	1
9	5	6	7	2

1.2-jadval. Balanslovchi tugun kuchlanishi U_0 (kV) va tugunlardagi toklar I_i (kA)

Variantlar	**U_0**	**I_1**	**I_2**	**I_3**
0	110	2	6	-4
1	110	3	-2	4
2	115	5	-6	3
3	115	4	-4	6
4	121	8	3	-5
5	121	7	5	-3
6	220	10	-11	9
7	220	12	-10	8
8	230	15	7	-13
9	230	14	9	-16



1.1- rasm

2. QISQACHA NAZARIY MA'LUMOTLAR

Foydalaniladigan tushuncha va tamoyillar:

$\dot{\Pi}$ - parametrning kompleks qiymati (kuchlanish, tok, to'la quvvat, qarshilik va h.k.).

$\hat{\Pi}$ - parametrning kompleks-qo'shma qiymati (kuchlanish, tok, to'la quvvat, qarshilik va h.k.). Agar $\dot{\Pi} = a + jb$ bo'lsa, u holda $\hat{\Pi} = a - jb$ bo'ladi.

$|\Pi|^T$ - transponirlangan matritsa. Bu shuni bildiradiki, $|\Pi|^T$ matritsa qatorlari $|\Pi|$ matritsa ustunlaridir, mos ravishda $|\Pi|^T$ matritsa ustunlari $|\Pi|$ matritsa qatorlaridir.

2.1. TUGUN KUCHLANISH TENGLAMALARINING TUZILISHI

Elektr energetika tizimlarining (EET) turg‘un rejimlarini hisob-lash elektr tarmoqlari tugunlarining kuchlanishlarini aniqlashga olib boradi, qolgan barcha rejim parametrlarini (quvvatlar, isroflar, katta toklar) kuchlanish kattaligiga bog‘liq bo‘lmagan kabi aniqlash mumkin. Shuning uchun EET turg‘un rejimlarini hisoblashning ko‘proq maqsadga muvofiq bo‘lgan modeli tugun kuchlanish tenglamalari (TKT) hisoblanadi.

EETning elektr tarmog‘i uchun TKT tuzilishini ko‘rib chiqamiz, almashtirish sxemasi 2.1-rasmda taqdim etilgan.



2.1- rasm

Kirxgofning birinchi qonuniga muvofiq har bir tugundagi tok tenglamalarini quyidagi ko‘rinishda yozish mumkin:

$$\left.\begin{aligned} &\dot{y}_{01}\cdot(\dot{U}_0-\dot{U}_1)+\dot{I}_0=0\\ &\dot{y}_{10}\cdot(\dot{U}_1-\dot{U}_0)+\dot{y}_{12}\cdot(\dot{U}_1-\dot{U}_2)+\dot{y}_{13}\cdot(\dot{U}_1-\dot{U}_3)+\dot{I}_1=0\\ &\dot{y}_{21}\cdot(\dot{U}_2-\dot{U}_1)+\dot{y}_{23}\cdot(\dot{U}_2-\dot{U}_3)-\dot{I}_2=0\\ &\dot{y}_{31}\cdot(\dot{U}_3-\dot{U}_1)+\dot{y}_{32}\cdot(\dot{U}_3-\dot{U}_2)+\dot{I}_3=0 \end{aligned}\right\}, \qquad (2.1)$$

bu yerda $\dot{y}_{ij}$ - i-j bog‘lanishli o‘tkazuvchanlik, i va j tugunlar orasida;

$\dot{U}_i$, $\dot{I}_i$ - mos ravishda i-tugundagi kuchlanish va tok.

(2.1) tenglamalar sistemasini o‘zgartirib, quyidagini olamiz:

$$\left.\begin{array}{r} \dot{y}_{00}\cdot\dot{U}_0 - y_{01}\cdot\dot{U}_1 + 0\cdot\dot{U}_2 + 0\cdot\dot{U}_3 + \dot{I}_0 = 0 \\ -\dot{y}_{10}\cdot\dot{U}_0 + \dot{y}_{11}\cdot\dot{U}_1 - \dot{y}_{12}\cdot\dot{U}_2 - \dot{y}_{13}\cdot\dot{U}_3 + \dot{I}_1 = 0 \\ 0\cdot\dot{U}_0 - \dot{y}_{21}\cdot\dot{U}_1 + \dot{y}_{22}\cdot\dot{U}_2 - \dot{y}_{23}\cdot\dot{U}_3 + \dot{I}_2 = 0 \\ 0\cdot\dot{U}_0 - \dot{y}_{31}\cdot\dot{U}_1 - \dot{y}_{32}\cdot\dot{U}_2 + \dot{y}_{33}\cdot\dot{U}_3 + \dot{I}_3 = 0 \end{array}\right\}, \quad (2.2)$$

bu yerda

$$\dot{y}_{00} = y_{01}, \qquad \dot{y}_{11} = \dot{y}_{10} + \dot{y}_{12} + \dot{y}_{13},$$
$$\dot{y}_{22} = \dot{y}_{21} + \dot{y}_{23}, \qquad \dot{y}_{33} = \dot{y}_{31} + \dot{y}_{32}.$$

(2.2) tenglamalar sistemasini matritsa ko‘rinishida yozish mumkin:

$$\begin{vmatrix} \dot{y}_{00} & -\dot{y}_{01} & 0 & 0 \\ -\dot{y}_{10} & \dot{y}_{11} & -\dot{y}_{12} & -\dot{y}_{13} \\ 0 & -\dot{y}_{21} & \dot{y}_{22} & -\dot{y}_{23} \\ 0 & -\dot{y}_{31} & -\dot{y}_{32} & \dot{y}_{33} \end{vmatrix} \cdot \begin{vmatrix} \dot{U}_0 \\ \dot{U}_1 \\ \dot{U}_2 \\ \dot{U}_3 \end{vmatrix} + \begin{vmatrix} \dot{I}_0 \\ \dot{I}_1 \\ \dot{I}_2 \\ \dot{I}_3 \end{vmatrix} = \begin{vmatrix} 0 \\ 0 \\ 0 \\ 0 \end{vmatrix}, \qquad (2.3)$$

yoki

$$\dot{Y}_n \cdot \dot{U}_n + \dot{I}_n = 0. \qquad (2.4)$$

Aniqlangan $\dot{Y}_n$ (2.4) matritsa nolga teng, demak uning har bir qator (yoki ustun) elementlari yig‘indisi nolga teng. Shuning uchun (2.3) tenglamalar sistemasidan bittasi qolganlarining natijasi hisoblanadi, toklar balansi tenglamasi quyidagidan boshlanadi

$$\dot{I}_0 + \dot{I}_1 + \dot{I}_2 + \dot{I}_3 = 0.$$

(2.3) sistema tenglamalaridan bittasi (balanslovchi 0 tugun) ni qisqartirib, quyidagini olamiz:

$$\begin{vmatrix} \dot{y}_{11} - \dot{y}_{12} - \dot{y}_{13} \\ -\dot{y}_{21} \quad \dot{y}_{22} - \dot{y}_{23} \\ -\dot{y}_{31} - \dot{y}_{32} \quad \dot{y}_{33} \end{vmatrix} \cdot \begin{vmatrix} \dot{U}_1 \\ \dot{U}_2 \\ \dot{U}_3 \end{vmatrix} = \begin{vmatrix} \dot{y}_{10} \\ 0 \\ 0 \end{vmatrix} \cdot \dot{U}_0 - \begin{vmatrix} \dot{I}_1 \\ \dot{I}_2 \\ \dot{I}_3 \end{vmatrix}, \qquad (2.5)$$

yoki

$$\dot{Y} \cdot \dot{U} = \left|\dot{Y}_{k0}\right| \cdot \dot{U}_0 - \dot{I}\,. \qquad (2.6)$$

Bu yerda $\left|\dot{Y}_{k0}\right|$ - tugunlarning balanslovchi nol tugun bilan bog‘langan tarmoq o‘tkazuvchanliklarining ustun matritsasi.

(2.6) ni xuddi chiziqli sistema kabi teskari matritsa $\dot{Y}^{-1} = \dot{Z}$ yordamida yechib, quyidagini olamiz:

$$\dot{U} = \dot{Z} \cdot (\left|\dot{Y}_{k0}\right| \cdot \dot{U}_0 - \dot{I}) = \left|\dot{A}_k\right| \cdot \dot{U}_0 - \dot{Z} \cdot \dot{I} \qquad (2.7)$$

2.1-rasm uchun tenglamalar sistemasi (2.7) quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi:

$$\begin{vmatrix} \dot{U}_1 \\ \dot{U}_2 \\ \dot{U}_3 \end{vmatrix} = \begin{vmatrix} \dot{A}_{10} \\ \dot{A}_{20} \\ \dot{A}_{30} \end{vmatrix} \cdot \dot{U}_0 - \begin{vmatrix} \dot{z}_{11} & \dot{z}_{12} & \dot{z}_{13} \\ \dot{z}_{21} & \dot{z}_{22} & \dot{z}_{23} \\ \dot{z}_{31} & \dot{z}_{32} & \dot{z}_{33} \end{vmatrix} \cdot \begin{vmatrix} \dot{I}_1 \\ \dot{I}_2 \\ \dot{I}_3 \end{vmatrix}. \qquad (2.8)$$

Sxemada transformatorlar bo‘lmagan, ya’ni parametrlar bir pog‘ona kuchlanishga keltirilgan holda quyidagini isbot qilish mumkin:

$$\dot{A}_{k0} = \dot{Z} \cdot \dot{Y}_{k0} = 1 \qquad (2.9)$$

Hisoblashlar uchun berilgan ma’lumotlar hisobiy sxema tugunlari orasidagi bog‘lanish qarshiliklari hamda tugunlarning yoki tok kattaliklari ($\dot{I}$ matritsa), yoki quvvat kattaliklari ($\dot{S}$ matritsa) hisoblanadi.

Tugunlardagi dastlabki ma’lumotlar quvvat $\dot{S}_k = \dot{U}_k \hat{I}$ ko‘rinishida berilgan hollarda toklar matritsasi (2.6) va (2.7) tenglamalarda quyidagicha aniqlanadi:

$$\left|\dot{I}_k\right| = \left\|\hat{S}_k / \hat{U}_k\right\| \qquad (2.10)$$

va tugun tenglamalari qidirilayotgan kuchlanishga nisbatan nochiziqli tenglamalarga o‘zgaradi.

Agar tugun toklar berilgan bo‘lsa, tugun kuchlanish tenglamalari (2.6) yoki (2.7) chiziqli hisoblanadi. Bunday holatlarda tugunlardagi kuchlanishlarni aniqlash uchun chiziqli tenglamalar sistemasini yechishning matematik uslublari (Gauss, triangulyatsiya, teskari matritsa uslubi) dan foydalanish mumkin. Nochiziqli TKT ni faqat iteratsion uslublar (oddiy iteratsiya, Gauss-Zeydel, Nyuton-Rafson va boshqa uslublar) dan foydalanish bilan yechish mumkin.

2.2. CHIZIQLI TUGUN KUCHLANISH TENGLAMALARINI YECHISH USLUBLARI

2.2.1. GAUSS USLUBI

Gauss uslubining qo‘llanilishini quyidagi chiziqli tenglamalar sistemasida ko‘rib chiqamiz:

$$\begin{aligned} a_{11} \cdot X_1 + a_{12} \cdot X_2 + a_{13} \cdot X_3 &= a_{14} \\ a_{21} \cdot X_1 + a_{22} \cdot X_2 + a_{23} \cdot X_3 &= a_{24} \\ a_{31} \cdot X_1 + a_{32} \cdot X_2 + a_{33} \cdot X_3 &= a_{34} \end{aligned} \qquad (2.11)$$

Yetaklovchi element $a_{11} \neq 0$ tanlaymiz va (2.11) sistema birinchi tenglamasi barcha koeffitsiyentlarini unga bo‘lamiz. Natijalarda quyidagilarni olamiz:

$$X_1 + b_{12} \cdot X_2 + b_{13} \cdot X_3 = b_{14}, \qquad (2.12)$$

bu yerda

$$b_{1j} = a_{1j}/a_{11} \quad (j = \overline{2,4}).$$

Keyin (2.11) sistemadan noma’lum X_1 (2.12) tenglamani a_{21} va a_{31} koeffitsiyentlariga ketma-ket ko‘paytirish va (2.11) sistema ikkinichi va uchinchi tenglamalaridan mos ravishda ayirish yo‘li bilan yo‘qotiladi. U holda quyidagi ko‘rinishdagi tenglamalar sistemasini olamiz:

$$\left.\begin{aligned} a_{22}^{(1)} \cdot X_2 + a_{23}^{(1)} \cdot X_3 = a_{24}^{(1)} \\ a_{32}^{(1)} \cdot X_2 + a_{33}^{(1)} \cdot X_3 = a_{34}^{(1)} \end{aligned}\right\}, \qquad (2.13)$$

bu yerda

$$a_{22}^{(1)} = a_{22} - a_{21} \cdot b_{12}, \quad a_{32}^{(1)} = a_{32} - a_{31} \cdot b_{12},$$
$$a_{23}^{(1)} = a_{23} - a_{21} \cdot b_{13}, \quad a_{33}^{(1)} = a_{33} - a_{31} \cdot b_{13},$$
$$a_{24}^{(1)} = a_{24} - a_{21} \cdot b_{14}, \quad a_{34}^{(1)} = a_{34} - a_{31} \cdot b_{14}.$$

(2.13) sistema koeffitsiyentini hisoblash uchun umumiy formula quyidagicha ko‘rinishni oladi:

$$a_{ij}^{(1)} = a_{ij} - a_{i1} \cdot b_{1j}, \text{ bu yerda } (i = \overline{2,3}), (j = \overline{2,4}).$$

Endi yetaklovchi element $a_{22}^{(1)} \neq 0$ tanlaymiz va (2.13) sistema birinchi tenglamasining barcha koeffitsiyentlarini unga bo‘lamiz. Natijada quyidagini olamiz:

$$X_2 + b_{23}^{(1)} \cdot X_3 = b_{24}^{(1)}, \qquad (2.14)$$

bu yerda

$$b_{2j}^{(1)} = a_{2j}^{(1)}/a_{22}^{(1)} \quad (j = \overline{3,4}).$$

Keyin (2.13) sistemadan noma'lum X_2 (2.14) tenglamani $a_{32}^{(1)}$ ga ko'paytirish va natijani (2.13) sistema ikkinchi tenglamasidan ayirish yo'li bilan yo'qotiladi. U holda quyidagini olamiz:

$$a_{33}^{(2)} \cdot X_3 = a_{34}^{(2)}, \qquad (2.15)$$

bu yerda

$$a_{33}^{(2)} = a_{33}^{(1)} - a_{32}^{(1)} \cdot b_{23}^{(1)},$$
$$a_{34}^{(2)} = a_{34}^{(1)} - a_{32}^{(1)} \cdot b_{24}^{(1)}.$$

(2.15) sistema koeffitsiyentini hisoblash uchun umumiy formula quyidagicha ko'rinishni oladi:

$$a_{3j}^{(2)} = a_{32}^{(1)} - a_{32}^{(1)} \cdot b_{2j}^{(1)}, \text{ где } (j = \overline{3,4}).$$

Yetaklovchi element $a_{33}^{(2)} \neq 0$ tanlaymiz va (2.15) tenglamaning barcha koeffitsiyentlarini unga bo'lamiz. Natijada quyidagini olamiz:

$$X_3 = b_{34}^{(2)}, \qquad (2.16)$$

bu yerda

$$b_{34}^{(2)} = a_{34}^{(2)} / a_{33}^{(2)}.$$

Bunday vaziyatlarda, Gauss uslubining to'g'ri yurishi qo'llaniladi, ya'ni berilgan (2.11) tenglamalar sistemasidan noma'lumlar ketma-ket yo'qotiladi va oxirida bir noma'lumli bitta tenglama (2.15) ga keladi.

X_3 (2.16) tenglamadan aniqlanadi, X_2 (2.14) tenglamadan topiladi:

$$X_2 = b_{24}^{(1)} - b_{23}^{(1)} \cdot X_3 .$$

Va nihoyat, X_3 va X_2 ni bilgan holda, (2.12) tenglamadan X_1 aniqlanadi:

$$X_1 = b_{14} - b_{13} \cdot X_3 - b_{12} \cdot X_2.$$

Bunday vaziyatlarda Gauss uslubining teskari yurishi qo‘llaniladi, ya’ni (2.16), (2.14), (2.12) tenglamalardan barcha noma’lumlarning qiymatlari ketma-ket topiladi. (2.11) tenglamalar sistemasi yechildi.

Gauss uslubi faqat barcha yetaklovchi elementlar nolga teng bo‘lmagan holatlarda qo‘llaniladi.

2.2.2. GAUSS USLUBINING JADVAL KO‘RINISHI

Gauss uslubi bo‘yicha hisoblashlar jadval shakldа (2.1- jadval) qulayroqdir, ya’ni formulalar yozilmaydi.

2.1- jadval

1	**2**	**3**	**4**	**Σ**	**Sxema qismlari**
a_{11} a_{21} a_{31} 1	a_{12} a_{22} a_{32} b_{12}	a_{13} a_{23} a_{33} b_{13}	a_{14} a_{24} a_{34} b_{14}	a_{15} a_{25} a_{35} b_{15}	A
	$a_{22}^{(1)}$ $a_{32}^{(1)}$ 1	$a_{23}^{(1)}$ $a_{33}^{(1)}$ $b_{23}^{(1)}$	$a_{24}^{(1)}$ $a_{34}^{(1)}$ $b_{24}^{(1)}$	$a_{25}^{(1)}$ $a_{35}^{(1)}$ $b_{25}^{(1)}$	A_1
		$a_{33}^{(2)}$ 1	$a_{34}^{(2)}$ $b_{34}^{(2)}$ (X_3)	$a_{35}^{(2)}$ $b_{35}^{(2)}$ $(\bar{X}_3)$	A_2
  1	 1 	1 	X_3 X_2 X_1	$\bar{X}_3$ $\bar{X}_2$ $\bar{X}_1$	B

2.2.3. TRIANGULYATSIYA USLUBI

Bu uslubda tenglamalar sistemasi koeffitsiyentlaridan tuzilgan kvadrat matritsadan ikkita uchburchakli ko‘paytma matritsaga ajratilib foydalaniladi.

Berilgan tenglamalar sistemasi

$$\begin{vmatrix} a_{11} & a_{12} & a_{13} \\ a_{21} & a_{22} & a_{23} \\ a_{31} & a_{32} & a_{33} \end{vmatrix} \cdot \begin{vmatrix} X_1 \\ X_2 \\ X_3 \end{vmatrix} = \begin{vmatrix} b_1 \\ b_2 \\ b_3 \end{vmatrix} . \qquad (2.17)$$

Noma'lumlarni yuqoridagi uchburchakli matritsa bilan sistemaga keltirib ketma-ket yo'qotiladi

$$\left.\begin{aligned} X_1 + \alpha_{12} \cdot X_2 + \alpha_{13} \cdot X_3 &= V_1 \\ X_2 + \alpha_{23} \cdot X_3 &= V_2 \\ X_3 &= V_3 \end{aligned}\right\} \qquad (2.18)$$

Agar qayta tuzilgan o'zgarmaslar V_1, V_2, V_3 aniqlangan bo'lsa, u holda (2.18) ga o'tib X_3 dan X_1 gacha bo'lgan barcha noma'lumlarning qiymatlarini osonlikcha aniqlash mumkin.

Qayta tuzilgan o'zgarmaslar bir qancha sistemalardan aniqlanadi:

$$\begin{vmatrix} \gamma_{11} & 0 & 0 \\ \gamma_{21} & \gamma_{22} & 0 \\ \gamma_{31} & \gamma_{32} & \gamma_{33} \end{vmatrix} \cdot \begin{vmatrix} V_1 \\ V_2 \\ V_3 \end{vmatrix} = \begin{vmatrix} b_1 \\ b_2 \\ b_3 \end{vmatrix} \qquad (2.19)$$

Pastki uchburchakli matritsa bilan γ quyidagicha ko'rinish oladi:

$$\begin{vmatrix} \gamma_{11} & 0 & 0 \\ \gamma_{21} & \gamma_{22} & 0 \\ \gamma_{31} & \gamma_{32} & \gamma_{33} \end{vmatrix} \cdot \begin{vmatrix} 1 & \alpha_{12} & \alpha_{13} \\ 0 & 1 & \alpha_{23} \\ 0 & 0 & 1 \end{vmatrix} \cdot \begin{vmatrix} X_1 \\ X_2 \\ X_3 \end{vmatrix} = \begin{vmatrix} b_1 \\ b_2 \\ b_3 \end{vmatrix} . \qquad (2.20)$$

Ya'ni

$$A \cdot X = \gamma \cdot \alpha \cdot X = \gamma \cdot V = B , \qquad (2.21)$$

γ·α = A tenglikdan γ va α matritsa elementlari qiymatlarini aniqlash uchun rekkurent bog‘lanish chiqarish mumkin:

$$\left.\begin{aligned} &\gamma_{k1} = a_{k1}\ (k = \overline{1,3}), \quad \alpha_{1t} = a_{1t} / a_{11}\ (t = \overline{2,3}), \\ &\gamma_{kt} = a_{kt} - \sum_{j=1}^{t-1} \gamma_{kj} \cdot \alpha_{jt} \quad (k,t = \overline{2,3}), \quad (k \geq t), \\ &\alpha_{kt} = (1/\gamma_{kk}) \cdot (a_{kt} - \sum_{j=1}^{k-1} \gamma_{kj} \cdot \alpha_{jt}) \quad (k,t = \overline{2,3}), \quad (k < t). \end{aligned}\right| \tag{2.22}$$

Koeffitsiyentlarning o‘zgartirilgan qiymatlarini va noma’lumlar quyidagi bog‘lanishdan aniqlanadi:

$$V_1 = b_1 / a_{11}, \quad V_k = (1/\gamma_{kk}) \cdot (b_k - \sum_{j=1}^{k-1} \gamma_{kj} \cdot V_j) \quad (k = \overline{2,3}), \tag{2.23}$$

$$X_n = V_n, \quad X_k = V_k - \sum_{j=k+1}^{n} \alpha_{kj} \cdot X_j \quad (k < 3). \tag{2.24}$$

2.2.4. TUGUN QARSHILIKLAR MATRITSASINI ANIQLASH USLUBLARI

$\dot{Z} = \dot{Y}^{-1}$ matritsani topish quyidagi uslublar asosida bajarilishi mumkin:

- Gauss,
- faktorizatsiya.

Tugun qarshiliklar matritsasi $\dot{Z}$ EETning elektr tarmoq sxemasi bo‘yicha bevosita topologiya va kommutatsiya uslubida ham aniqlanishi mumkin.

2.2.4.1. Teskari matritsaga asoslangan Gauss uslubi

Berilgan A matritsaga teskari bo‘lgan matritsani topish kerak bo‘lsin.

A^{-1} = C deb belgilaymiz. U holda A matritsa tartibi uchun matritsali ifoda A· A^{-1} = E (bu yerda E – birlik matritsa) 3 ga teng va quyidagi ko‘rinishga ega:

$$\begin{vmatrix} a_{11} & a_{12} & a_{13} \\ a_{21} & a_{22} & a_{23} \\ a_{31} & a_{32} & a_{33} \end{vmatrix} \cdot \begin{vmatrix} c_{11} & c_{12} & c_{13} \\ c_{21} & c_{22} & c_{23} \\ c_{31} & c_{32} & c_{33} \end{vmatrix} = \begin{vmatrix} 1 & 0 & 0 \\ 0 & 1 & 0 \\ 0 & 0 & 1 \end{vmatrix} \qquad (4.25)$$

Matritsalarni ko‘paytiramiz va quyidagilarni olamiz:

$$\left\{ \begin{aligned} a_{11} \cdot c_{11} + a_{12} \cdot c_{21} + a_{13} \cdot c_{31} &= 1 \\ a_{21} \cdot c_{11} + a_{22} \cdot c_{21} + a_{23} \cdot c_{31} &= 0 \\ a_{31} \cdot c_{11} + a_{32} \cdot c_{21} + a_{33} \cdot c_{31} &= 0 \end{aligned} \right\} \qquad (2.26)$$

$$\left\{ \begin{aligned} a_{11} \cdot c_{12} + a_{12} \cdot c_{22} + a_{13} \cdot c_{32} &= 0 \\ a_{21} \cdot c_{12} + a_{22} \cdot c_{22} + a_{23} \cdot c_{32} &= 1 \\ a_{31} \cdot c_{12} + a_{32} \cdot c_{22} + a_{33} \cdot c_{32} &= 0 \end{aligned} \right\} \qquad (2.27)$$

$$\left\{ \begin{aligned} a_{11} \cdot c_{13} + a_{12} \cdot c_{23} + a_{13} \cdot c_{33} &= 0 \\ a_{21} \cdot c_{13} + a_{22} \cdot c_{23} + a_{23} \cdot c_{33} &= 0 \\ a_{31} \cdot c_{13} + a_{32} \cdot c_{23} + a_{33} \cdot c_{33} &= 1 \end{aligned} \right\} \qquad (2.28)$$

Bunday holatda, (2.26)–(2.28) sistemalarda gruppalangan C matritsaning to‘qqizta noma’lum elementi bilan to‘qqizta to‘g‘ri chiziqli tenglamalarga ega bo‘linadi. Asosiysi bu sistema bitta A koeffitsiyent matritsasi bo‘lib hisoblanadi. Bu barcha uchta sistemani yechish va teskari matritsani Gauss uslubining jadval ko‘rinishini (2.2 - jadval) bir marta qo‘llash orqali aniqlash imkonini beradi.

2.2 - jadval

Etap №	**1**	**2**	**3**	**4**	**5**	**6**	**Σ**
I	a_{11}	a_{12}	a_{13}	1	0	0	d_1
	a_{21}	a_{22}	a_{23}	0	1	0	d_2
	a_{31}	a_{32}	a_{33}	0	0	1	d_3
	1	b_{12}	b_{13}	b_{14}	0	0	e_1
II		$a_{22}^{(1)}$	$a_{23}^{(1)}$	$a_{24}^{(1)}$	1	0	$d_2^{(1)}$
		$a_{32}^{(1)}$	$a_{33}^{(1)}$	$a_{34}^{(1)}$	0	1	$d_3^{(1)}$
		1	$b_{23}^{(1)}$	$b_{24}^{(1)}$	$b_{25}^{(1)}$	0	$e_2^{(1)}$
III			$a_{33}^{(2)}$	$a_{34}^{(2)}$	$a_{35}^{(2)}$	1	$d_3^{(2)}$
			1	$b_{34}^{(2)}$	$b_{35}^{(2)}$	$b_{36}^{(2)}$	$e_3^{(2)}$
			1	c_{31}	c_{32}	c_{33}	$\sum_{j=1}^{3} c_{3j} + 1$
		1		c_{21}	c_{22}	c_{23}	$\sum_{j=1}^{3} c_{2j} + 1$
	1			c_{11}	c_{12}	c_{13}	$\sum_{j=1}^{3} c_{1j} + 1$

Olingan matritsa $C = A^{-1}$ ning to‘g‘riligini tekshirish uchun $A \cdot C = E$ bog‘lanish qo‘llaniladi.

2.2.4.2. Faktorizatsiya uslubi

Demak, tugun qarshiliklar matritsasi $\dot{Z}$ to‘liq to‘ldirilganligi uchun $\dot{Z}$ matritsani noaniq ko‘rinishda tasvirlash maqsadga muvofiq (hisob-kitob hajmi kamayadi).

$C = A^{-1}$ matritsani aniqlashni ko‘rib chiqamiz, bu yerda A – tenglamalar sistemasi koeffitsiyentlaridan tuzilgan matritsa:

$$\begin{vmatrix} a_{11} & a_{12} & a_{13} \\ a_{21} & a_{22} & a_{23} \\ a_{31} & a_{32} & a_{33} \end{vmatrix} \cdot \begin{vmatrix} X_1 \\ X_2 \\ X_3 \end{vmatrix} = \begin{vmatrix} b_1 \\ b_2 \\ b_3 \end{vmatrix}$$

C matritsani n ta ko'paytma matritsa ko'rinishida aniqlaymiz:

$C = T_n \cdot T_{n-1} \cdots T_2 \cdot T_1$, (2.29)
bu yerdan $n = 3$.

A matritsani chap tomondan o'zgartirish matritsasiga ko'paytiramiz:

$$T_1 = \begin{vmatrix} 1/a_{11} & 0 & 0 \\ -a_{21}/a_{11} & 1 & 0 \\ -a_{31}/a_{11} & 0 & 1 \end{vmatrix},$$

Matritsa quyidagini beradi:

$$A^{(1)} = T_1 \cdot A = \begin{vmatrix} 1 & a_{12}^{(1)} & a_{13}^{(1)} \\ 0 & a_{22}^{(1)} & a_{23}^{(1)} \\ 0 & a_{32}^{(1)} & a_{33}^{(1)} \end{vmatrix}.$$

$A^{(1)}$ matritsa elementlari Gauss uslubi bo'yicha hisoblanganda diagonal elementlar asosiy element sifatida qabul qilinadi:

$a_{1k}^{(1)} = a_{1k} / a_{11}$,
$a_{ik}^{(1)} = a_{ik} - a_{i1}^{(1)} \cdot a_{1k} / a_{11}$ $(i, k = \overline{2,3})$.

Dastlabki tenglamalar sistemasini olamiz:

$$A^{(1)} \cdot X = T_1 \cdot A \cdot X = T_1 \cdot B .$$

$A^{(1)}$ matritsani chap tomondan ikkinchi o‘zgartirilgan matritsa T_2 ga ko‘paytirib, $A^{(1)}$ matritsadan ikkinchi ustun elementlarini yo‘qotamiz, faqat diagonal birliklardan tashqari. Buning natijasida

$$T_2 = \begin{vmatrix} 1 & -a_{12}^{(1)} / a_{22}^{(1)} & 0 \\ 0 & 1 / a_{22}^{(1)} & 0 \\ 0 & -a_{32}^{(1)} / a_{22}^{(1)} & 1 \end{vmatrix}$$

va

$$A^{(2)} = T_2 \cdot A^{(1)} = T_2 \cdot T_1 \cdot A = \begin{vmatrix} 1 & 0 & a_{13}^{(2)} \\ 0 & 1 & a_{23}^{(2)} \\ 0 & 0 & a_{33}^{(2)} \end{vmatrix}.$$

U holda dastlabki tenglamalar sistemasi quyidagi ko‘rinishni oladi :

$$A^{(2)} \cdot X = T_2 \cdot A^{(1)} \cdot X = T_2 \cdot T_1 \cdot A \cdot X = T_2 \cdot T_1 \cdot B.$$

Bunday jarayon sistema tartibi n uchun davom ettirilib, quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi:

$$A^{(n)} \cdot X = T_n \cdot T_{n-1} \cdots T_2 \cdot T_1 \cdot A \cdot X = T_n \cdot T_{n-1} \cdots T_2 \cdot T_1 \cdot B.$$

Demak $A^{(n)}$ birlik matritsaga kelib qoladi:

$$X = T_n \cdot T_{n-1} \cdots T_2 \cdot T_1 \cdot B = A^{-1} \cdot B = C \cdot B. \qquad (2.30)$$

Demak (2.29) bog‘lanish to‘g‘ridir.

Tugun o‘tkazuvchanlik matritsasi $\dot{Y}$ siyrak to‘ldirilganligi sababli hamda har bir o‘zgartirish matritsasi T_j (i = $\overline{1, n}$) birlamchi matritsadan faqatgina i-ustun bilan farq qilganligi sababli faqat shu ustun aniqlanishi yetarlidir. Shunday qilib, to‘liq to‘ldirilgan matritsa o‘rniga EHMda faqat nolga teng elementlarsiz matritsa saqlanadi.

2.2.4.3. Topologiya va kommutatsiya uslubi



2.2-rasm

Bu uslub tugun qarshiliklar matritsasi $\dot{Z}$ ni bosqichma-bosqich olish uchun xizmat qiladi va topologik (strukturaviy) sxema qo‘llanilishiga asoslangan. Agar hisobiy sistema tarmoqlari n tartibli $\dot{Z}^c$ matritsa bilan shahobchalarning bog‘lanishi p–(n+1), qarshilik $\dot{Z}_v$ ga teng bo‘lsa, yangi (n+1) tugun uchun 2.2-rasm o‘rinlidir va p tugundagi tok quyidagiga teng bo‘ladi:

$$\dot{I}_p + \dot{I}'_p = \dot{I}_p + \dot{I}'_{n+1}.$$

O‘zaro bog‘langan tugunlardagi kuchlanish

$$\dot{U}_{n+1} = \dot{U}_p - \dot{Z}_v \dot{I}_{n+1}.$$

Bu holatda yangi matritsa $\dot{Z}^н$ quyidagi ko‘rinishni oladi:

$$\dot{Z}^н = \left| \begin{array}{c:c} \dot{Z}^c & \dot{Z}_{k,n+1} \\ \hdashline \dot{Z}_{n+1,k} & \dot{Z}_{n+1,n+1} \end{array} \right|, \tag{2.31}$$

bu yerda

$$\left.\begin{aligned} \dot{Z}_{k,n+1} &= \dot{Z}_{kp} \\ \dot{Z}_{n+1,k} &= \dot{Z}_{pk} \end{aligned}\right\} (k = \overline{1,n})$$

– (n+1)ga muvofiq $\dot{Z}^c$ matritsa ustun va qator elementlari;

$$\dot{Z}_{n+1,n+1} = \dot{Z}_{pp} + \dot{Z}_v.$$



2.3-rasm

$\dot{Z}_{pq}$ shahobcha bog‘lanishida, yopiq kontur (2.3-rasm), n-tartibli matritsa $\dot{Z}$ o‘zgarmaydi, faqat uning elementlari qandaydir kattalik $\Delta\dot{Z}$ ga tuzatiladi, qiymatni keyingi holatlarda yaqqol ko‘rinishda olish mumkin. Yangi tuzilgan p-q shahobcha uchun (2.3-rasm) $\dot{Z}'_{pq}$ qarshilikni quyidagicha yozish mumkin:

$$\dot{U}_p - \dot{U}_q = \dot{Z}'_{pq} \cdot \dot{I}_{pq} . \qquad (2.32)$$

Bu shahobcha p va q tugunlar uchun $\dot{I}_{pq}$ va $(-\dot{I}_{pq})$ ga muvofiq yuzaga keluvchi toklarni chorlaydi. Bunday vaziyatlarda har qanday k-tugundagi kuchlanish quyidagiga teng bo‘ladi:

$$\dot{U}_k = \dot{a}_{k0} \cdot \dot{U}_0 + \sum_{t=1}^{n} \dot{Z}_{kt} \cdot \dot{I}_t - \dot{Z}_{kp} \cdot \dot{I}_{pq} + \dot{Z}_{kq} \cdot \dot{I}_{pq}, \qquad (2.33)$$

bu yerda $\dot{a}_{k0} = \sum_{t=1}^{n} \dot{Z}_{kt} \cdot \dot{y}_{t0}$.

Hisobiy sxemada barcha tugunlar soni o‘zgarmaydi, (2.33) tenglamani undan $\dot{I}_{pq}$ tok yo‘qotilgandan keyin tuzatilgan parametrlar bilan ko‘rsatish zarur:

$$\dot{U}_k = a_{k0} \cdot \dot{U}_0 + \sum_{t=1}^{n} \dot{Z}_{kt} \cdot \dot{I}_t . \qquad (2.34)$$

Shuni hisobga olish kerakki:

$$a_{k0} = \sum_{t=1}^{n} Z_{kt} \cdot \dot{y}_{t0} \; . \qquad (2.35)$$

Qayta tuzatilgan qiymat Z_{kt} yetarlichadir. Shuning uchun (2.33)da $\dot{U}_0 = 0$ bo‘lishi mumkun, p va q tugunlar uchun quyidagini yozish mumkin:

$$\dot{U}_p = \sum_{t=1}^{n} \dot{Z}_{pt} \cdot \dot{I}_t - (\dot{Z}_{pp} - \dot{Z}_{pq}) \cdot \dot{I}_{pq},$$
$$\dot{U}_q = \sum_{t=1}^{n} \dot{Z}_{qt} \cdot \dot{I}_t - (\dot{Z}_{qp} - \dot{Z}_{qq}) \cdot \dot{I}_{pq}. \qquad (2.36)$$

(2.36) ni (2.32)ga qo‘yib quyidagini olamiz:

$$\dot{I}_{pq} = \frac{\sum_{t=1}^{n} (\dot{Z}_{pt} - \dot{Z}_{qt}) \cdot \dot{I}_t}{\Delta pq}, \qquad (2.37)$$

bu yerda $\Delta pq = \dot{Z}'_{pq} + \dot{Z}_{pp} + \dot{Z}_{qq} - \dot{Z}_{pq} - \dot{Z}_{qp}$. (2.38)

(2.33)ga qaytib (2.38) ni hisobga olsak quyidagicha ko‘rinishga ega bo‘ladi:

$$\dot{U}_k = \dot{a}_{k0} \cdot \dot{U}_0 + \sum_{t=1}^{n} (\dot{Z}_{kt} - \Delta \dot{Z}_{kt}) \cdot \dot{I}_t = a_{k0} \cdot \dot{U}_0 + \sum_{t=1}^{n} Z_{kt} \cdot \dot{I}_t, \qquad (2.39)$$

bu yerda

$$\Delta \dot{Z}_{kt} = \frac{(\dot{Z}_{kp} - \dot{Z}_{kq}) \cdot (\dot{Z}_{pt} - \dot{Z}_{qt})}{\Delta pq} \quad (k, t = \overline{1, n}). \qquad (2.40)$$

$\dot{Z}$ matritsa aniqlangandan keyin tugunlardagi kuchlanishlarni ko'rib chiqilgan uslublardan osonlikcha topiladi. TKT (2.8) aylantirilgan tuzilishidan teskari matritsa uslubi.

2.3. INSIDENSIYA MATRITSASI VA EET ELEKTR TARMOQ SHAHOBCHALARIDAGI TOKLARNI ANIQLASH

Elektr tarmoqlar strukturasi insidensiya (tugunlar va shahobchalar bog'lanishi) matritsada $C = |c_{ij}|$ yozilsa, to'g'ri burchakli matritsa hisoblanib, qatorlar soni tugunlar soni n ga, ustunlar soni esa shahobchalar soni m ga teng bo'ladi.

C matritsa elementlari quyidagi qoidalar bo'yicha topiladi:

$$C_{ij} = \begin{cases} +1, \text{ agar j shahobchai tugundan yo'nalgan bo'lsa;} \\ -1, \text{ agar j shahobchai tugunga yo'nalgan bo'lsa;} \\ 0, \text{ agar j shahobchai tugunbilan bog'lanmaganbo'lsa.} \end{cases}$$

C insidensiya matritsasini tuzish oldidan shahobchalar yo'nalishini berish zarur.

Insidensiya matritsasini qo'llash bilan j shahobchadagi kuchlanishlar tushuvi quyidagicha aniqlanadi:

$$\Delta \dot{U}_j^{в} = \sum_{i=0}^{n} c_{ji} \cdot \dot{U}_i \quad (j = \overline{1, m}),$$

Yoki matritsa ko'rinishida

$$\Delta \dot{U}^{в} = C^T \cdot \dot{U}. \tag{2.41}$$

Boshqa tomondan,

$$\Delta \dot{U}^{в} = \dot{Z}^{в} \cdot \dot{J}^{в}, \tag{2.42}$$

bu yerda

$$\dot{Z}^{в} = \begin{vmatrix} \dot{Z}_{10}^{в} & 0 & 0 & 0 \\ 0 & \dot{Z}_{12}^{в} & 0 & 0 \\ 0 & 0 & \dot{Z}_{13}^{в} & 0 \\ 0 & 0 & 0 & \dot{Z}_{23}^{в} \end{vmatrix}$$

- 2.1-rasmdagi sxema uchun shahobchalar qarshiliklari matritsasi;

$\dot{J}^{в}$ - shahobcha toklari vektori.

(2.42) dan quyidagiga ega bo‘lamiz:

$$\dot{J}^{в} = (\dot{Z}^{в})^{-1} \cdot \Delta\dot{U}^{в},$$

yoki, (2.41) ni hisobga olib,

$$\dot{J}^{в} = C^{T} \cdot (\dot{Z}^{в})^{-1} \cdot \dot{U}, \tag{2.43}$$

bu yerda

$$(\dot{Z}^{в})^{-1} = \begin{vmatrix} \dot{y}_{10} & 0 & 0 & 0 \\ 0 & \dot{y}_{12} & 0 & 0 \\ 0 & 0 & \dot{y}_{13} & 0 \\ 0 & 0 & 0 & \dot{y}_{23} \end{vmatrix}$$

- shahobchalar o‘tkazuvchanligi matritsasi.

2.4. TUGUNLARDAGI QUVVATLAR VA ELEKTR TARMOQLARIDAGI UMUMIY QUVVAT ISROFLARINI ANIQLASH

Balanslangan EETning turg‘un rejimlarida quvvat balansini saqlash majburiydir:

$$\sum_{i=0}^{n} \dot{S}_i + \Delta\dot{S} = 0. \tag{2.44}$$

Tugunlardagi quvvat vektori quyidagiga teng:

$$\dot{S} = I^T \cdot \dot{U} . \qquad (2.45)$$

Yuqoridagilarni hisobga olib

$$\dot{U} = \left|\dot{A}_{k0}\right| \cdot \dot{U}_0 - \dot{Z} \cdot \dot{I} = n \cdot \dot{U}_0 - \dot{Z} \cdot \dot{I}.$$

Bu yerda n – birlik vektor ((2.8) murojaat qilinsin), yozish mumkinki:

$$\dot{S} = I^T \cdot (n \cdot \dot{U}_0 - \dot{Z} \cdot \dot{I}).$$

U holda quvvat isrofi $\Delta\dot{S}$ (2.44) dan quyidagicha aniqlanadi:

$$\Delta\dot{S} = -\dot{S} = I^T \cdot \dot{Z} \cdot \dot{I} - I^T \cdot n \cdot \dot{U}_0 . \qquad (2.46)$$

(2.46) da ikkinchi qism nolga teng, demak

$$I^T \cdot n \cdot \dot{U}_0 = I_0 \cdot 1 \cdot \dot{U}_0 + I_1 \cdot 1 \cdot \dot{U}_0 + \ldots + I_n \cdot 1 \cdot \dot{U}_0 = \left(\sum_{i=1}^{n} I_i \right) \cdot \dot{U}_0 = 0 \cdot \dot{U}_0 = 0.$$

Shuning uchun quvvat isrofi $\Delta\dot{S}$ quyidagiga teng:

$$\Delta\dot{S} = I^T \cdot \dot{Z} \cdot \dot{I}. \qquad (2.47)$$

2.5. NOCHIZIQLI TUGUN KUCHLANISH TENGLAMALARINI YECHISH USLUBLARI

2.5.1. ODDIY ITERATSIYA USLUBI (GAUSS USLUBI)

2.1-rasm sxemasi uchun TKT dastlabki shaklini quyidagicha algebraik ko‘rinishda yozish mumkin:

$$\left.\begin{cases} \dot{Y}_{11}\cdot\dot{U}_1-\dot{Y}_{12}\cdot\dot{U}_2-\dot{Y}_{13}\cdot\dot{U}_3=\dot{Y}_{10}\cdot\dot{U}_0-S_1/U_1 \\ -\dot{Y}_{21}\cdot\dot{U}_1+\dot{Y}_{22}\cdot\dot{U}_2-\dot{Y}_{23}\cdot\dot{U}_3=-S_2/U_2 \\ -\dot{Y}_{31}\cdot\dot{U}_1-\dot{Y}_{32}\cdot\dot{U}_2+\dot{Y}_{33}\cdot\dot{U}_3=-S_3/U_3 \end{cases}\right\} \quad (2.48)$$

(2.48) sistemaning birinchi tenglamasini $\dot{U}_1$ kuchlanishga, ikkinchisini $\dot{U}_2$ kuchlanishga, uchinchisini $\dot{U}_3$ kuchlanishga nisbatan yechib, quyidagi hisobiy formulalarni olamiz:

$$\left.\begin{aligned} U_1^{(n+1)} &= \frac{1}{Y_{11}}(Y_{10}U_0+Y_{12}\dot{U}_2^{(n)}+Y_{13}\dot{U}_3^{(n)}-\frac{S_1}{U_1^{(n)}}), \\ U_2^{(n+1)} &= \frac{1}{Y_{22}}(Y_{21}\dot{U}_1^{(n)}+Y_{23}\dot{U}_3^{(n)}-\frac{S_2}{U_2^{(n)}}), \\ U_3^{(n+1)} &= \frac{1}{Y_{33}}(Y_{31}\dot{U}_1^{(n)}+Y_{32}\dot{U}_2^{(n)}-\frac{S_3}{U_3^{(n)}}), \end{aligned}\right\} \quad (2.49)$$

Oddiy iteratsiya uslubi bo‘yicha tugun kuchlanishlarini aniqlash algoritmi quyidagi etaplardan tashkil topgan:

1. Kuchlanishlarning boshlang‘ich qiymatlari beriladi:
   $\dot{U}_i^{(k)}=\dot{U}_0$ (i = 1, 3), k = 0 bo‘lganda.

2. (2.49) o‘ng qismiga qiymatlar $\dot{U}_i^{(k)}$ (i = 1, 3) qo‘yiladi va kuchlanishning keyingi qiymatlari $\dot{U}_i^{(k+1)}$ (i = 1, 3) aniqlanadi.

3. k ning qiymatini birga oshiramiz va p.2 ga o‘tamiz.

Iteratsiya jarayoni yechimga yaqinlashishini aniqlash uchun ikkita kriteriy ishlatiladi: taxminiy va aniq.

Taxminiy kriteriydan foydalanilganda ikkita ketma-ket iteratsiyalardagi kuchlanish modullari qiymatlari farqi $|\Delta\dot{U}_i|$ $(i=\overline{1,n})$

bo‘yicha iteratsiyalarni yechimga yaqinlashganligi to‘g‘risida xulosa qilinadi:

$$\left|\Delta\dot{U}_i^{(k)}\right| = \left|\Delta\dot{U}_i^{(k)} - \Delta\dot{U}_i^{(k-1)}\right| \le \varepsilon \quad (i = \overline{1,n}) \qquad (2.50)$$

Bu yerda ε – ruxsat etilgan xatolik, yuqoridagi shart bajarilsa hisob-lashlar tugatiladi, aks holda davom ettiriladi.

Umuman olganda (2.50) shartlarning bajarilishi har doim yechimning olinishini kafolatlaydi.

Aniq kriteriy quyidagicha aniqlanadi. Tugun kuchlanish teng-lamalarining xatolik vektorlarini belgilaymiz:

$$\dot{W} = \dot{Y} \cdot \dot{U} - \left|\dot{Y}_{k0}\right| \cdot \dot{U}_0 + \dot{I} \ . \qquad (2.51)$$

2.1-rasm sxemasi uchun (2.51) tenglamalar matritsasi quyidagicha ko‘rinish oladi:

$$\begin{vmatrix} \dot{W}_1^{(k)} \\ \dot{W}_2^{(k)} \\ \dot{W}_3^{(k)} \end{vmatrix} = -\begin{vmatrix} \dot{y}_{11} & -\dot{y}_{12} & -\dot{y}_{13} \\ -\dot{y}_{21} & \dot{y}_{22} & -\dot{y}_{23} \\ -\dot{y}_{31} & -\dot{y}_{32} & \dot{y}_{33} \end{vmatrix} \cdot \begin{vmatrix} \dot{U}_1^{(k)} \\ \dot{U}_2^{(k)} \\ \dot{U}_3^{(k)} \end{vmatrix} - \begin{vmatrix} \dot{y}_{10} \\ 0 \\ 0 \end{vmatrix} \cdot \dot{U}_0 + \begin{vmatrix} S_1 / U_1^{(k)} \\ S_2 / U_2^{(k)} \\ S_3 / U_3^{(k)} \end{vmatrix}. \qquad (2.52)$$

Demak, TKTning yechimida barcha xatolik vektorlarining qiymatlari $\dot{W}_i (i = \overline{1,n})$ nolga teng bo‘ladi.

Agar quyidagi shart bajarilsa, TKT sistemasi amaliy yechilgan hisoblanadi:

$$|W_i^{(k)}| \le \delta \qquad (i = \overline{1,n}), \qquad (2.53)$$

bu yerda δ - hisoblashlarda berilgan xatolik.

(2.53) shart aniq kriteriyda hisoblashlar yakunlanganligini bil-diradi.

(2.49) bo‘yicha oddiy iteratsiya jarayoni ko‘pincha past tezlik-ka ega bo‘ladi, ayrim hollarda esa jarayon yechimdan uzoqlashadi.

2.5.2. TESKARI MATRITSAGA ASOSLANGAN TKT UCHUN ODDIY ITERATSIYA USLUBI

2.1-rasm hisobiy sxema uchun TKT quyidagicha ko‘rinishga ega:

$$\begin{vmatrix} \dot{U}_1 \\ \dot{U}_2 \\ \dot{U}_3 \end{vmatrix} = \begin{vmatrix} 1 \\ 1 \\ 1 \end{vmatrix} \cdot \dot{U}_0 - \begin{vmatrix} \dot{Z}_{11} & \dot{Z}_{12} & \dot{Z}_{13} \\ \dot{Z}_{21} & \dot{Z}_{22} & \dot{Z}_{23} \\ \dot{Z}_{31} & \dot{Z}_{32} & \dot{Z}_{33} \end{vmatrix} \cdot \begin{vmatrix} S_1 / U_1 \\ S_2 / U_2 \\ S_3 / U_3 \end{vmatrix} \qquad (2.54)$$

(2.53) da matritsalarni ko‘paytirish natijasida va (2.9) ni hisobga olib, oddiy iteratsiya uslubining hisobiy shaklini olamiz:

$$\left.\begin{aligned} U_1^{(k+1)} &= \dot{U}_0 - \dot{Z}_{11} \cdot \frac{S_1}{U_1^{(k)}} - \dot{Z}_{12} \cdot \frac{S_2}{U_2^{(k)}} - \dot{Z}_{13} \cdot \frac{S_3}{U_3^{(k)}}, \\ U_2^{(k+1)} &= \dot{U}_0 - \dot{Z}_{21} \cdot \frac{S_1}{U_1^{(k)}} - \dot{Z}_{22} \cdot \frac{S_2}{U_2^{(k)}} - \dot{Z}_{23} \cdot \frac{S_3}{U_3^{(k)}}, \\ U_3^{(k+1)} &= \dot{U}_0 - \dot{Z}_{31} \cdot \frac{S_1}{U_1^{(k)}} - \dot{Z}_{32} \cdot \frac{S_2}{U_2^{(k)}} - \dot{Z}_{33} \cdot \frac{S_3}{U_3^{(k)}}, \end{aligned}\right\} \qquad (2.55)$$

bu yerda k = 0, 1, 2, … - iteratsiya nomeri.

Oddiy iteratsiya uslubi bo‘yicha tugun kuchlanishlarini aniqlash algoritmi quyidagi etaplardan tashkil topgan:

1. Kuchlanishlarning boshlang‘ich qiymatlari beriladi:

   $\dot{U}_i^{(k)} = \dot{U}_0$ (i = 1, 3), k = 0 bo‘lganda.

2. (2.49) o‘ng qismiga qiymatlar $\dot{U}_i^{(k)}$ (i = 1, 3) qo‘yiladi va kuchlanishning keyingi qiymatlari $\dot{U}_i^{(k+1)}$ (i = 1, 3) aniqlanadi.

3. k ning qiymatini birga oshiramiz va p.2 ga o‘tamiz.

Iteratsiya jarayoni yechimga yaqinlashishini aniqlash uchun ikkita kriteriy ishlatiladi: taxminiy va aniq.

Taxminiy kriteriydan foydalanilganda ikkita ketma-ket iteratsiyalardagi kuchlanish modullari qiymatlari farqi $\left|\Delta\dot{U}_i\right| \quad (i=\overline{1,n})$ bo‘yicha iteratsiyalarni yechimga yaqinlashganligi to‘g‘risida xulosa qilinadi:

$$\left|\Delta\dot{U}_i^{(k)}\right| = \left|\Delta\dot{U}_i^{(k)} - \Delta\dot{U}_i^{(k-1)}\right| \le \varepsilon \quad (i=\overline{1,n}), \qquad (2.56)$$

bu yerda ε – ruxsat etilgan xatolik, yuqoridagi shart bajarilsa, hisoblashlar tugatiladi, aks holda davom ettiriladi.

Umuman olganda (2.56) shartlarning bajarilishi har doim yechimning olinishini kafolatlaydi.

Aniq kriteriy quyidagicha aniqlanadi. Tugun kuchlanish tenglamalarining xatolik vektorlarini belgilaymiz:

$$\dot{W} = \dot{Y}\cdot\dot{U} - \left|\dot{Y}_{k0}\right|\cdot\dot{U}_0 + \dot{I}\,. \qquad (2.57)$$

2.1-rasm sxemasi uchun (2.57) tenglamalar matritsasi quyidagicha ko‘rinish oladi:

$$\begin{vmatrix}\dot{W}_1^{(k)}\\ \dot{W}_2^{(k)}\\ \dot{W}_3^{(k)}\end{vmatrix} = -\begin{vmatrix}\dot{y}_{11} & -\dot{y}_{12} & -\dot{y}_{13}\\ -\dot{y}_{21} & \dot{y}_{22} & -\dot{y}_{23}\\ -\dot{y}_{31} & -\dot{y}_{32} & \dot{y}_{33}\end{vmatrix}\cdot\begin{vmatrix}\dot{U}_1^{(k)}\\ \dot{U}_2^{(k)}\\ \dot{U}_3^{(k)}\end{vmatrix} - \begin{vmatrix}\dot{y}_{10}\\ 0\\ 0\end{vmatrix}\cdot\dot{U}_0 + \begin{vmatrix}S_1/U_1^{(k)}\\ S_2/U_2^{(k)}\\ S_3/U_3^{(k)}\end{vmatrix}. \qquad (2.58)$$

Demak, TKTning yechimida barcha xatolik vektorlarining qiymatlari $\dot{W}_i (i=\overline{1,n})$ nolga teng bo‘ladi.

Agar quyidagi shart bajarilsa, TKT sistemasi amaliy yechilgan hisoblanadi:

$$|W_i^{(k)}| \le \delta \qquad (i=\overline{1,n}) \;, \qquad (2.59)$$

bu yerda δ - hisoblashlarda ruxsat etilgan xatolik.

(2.59) shart aniq kriteriyda hisoblashlar yakunlanganligini bildiradi.

Oddiy iteratsiya uslubining qulayligi algoritmning soddaligidadir. Bu uslubning kamchiligi yechimdan uzoqlashishlar bo‘lishi mumkin.

2.5.3. GAUSS-ZEYDEL USLUBI

2.1-rasm sxemasi uchun TKT dastlabki shaklini quyidagicha algebraik ko‘rinishda yozish mumkin:

$$\left\{\begin{aligned} &\dot{Y}_{11}\cdot\dot{U}_1-\dot{Y}_{12}\cdot\dot{U}_2-\dot{Y}_{13}\cdot\dot{U}_3=\dot{Y}_{10}\cdot\dot{U}_0-S_1/U_1\\ &-\dot{Y}_{21}\cdot\dot{U}_1+\dot{Y}_{22}\cdot\dot{U}_2-\dot{Y}_{23}\cdot\dot{U}_3=-S_2/U_2\\ &-\dot{Y}_{31}\cdot\dot{U}_1-\dot{Y}_{32}\cdot\dot{U}_2+\dot{Y}_{33}\cdot\dot{U}_3=-S_3/U_3 \end{aligned}\right\} \qquad (2.60)$$

(2.60) sistemaning birinchi tenglamasini $\dot{U}_1$ kuchlanishga, ikkinchisini $\dot{U}_2$ kuchlanishga, uchinchisini $\dot{U}_3$ kuchlanishga nisbatan yechib, Gauss-Zeydel uslubining hisobiy shakllarini olamiz:

$$\left.\begin{aligned} \dot{U}_1^{(k+1)}&=\frac{\dot{Y}_{10}\cdot\dot{U}_0+\dot{Y}_{12}\cdot\dot{U}_2^{(k)}+\dot{Y}_{13}\cdot\dot{U}_3^{(k)}-S_1/(U_1^{(k)})}{\dot{Y}_{11}}\\ \dot{U}_2^{(k+1)}&=\frac{\dot{Y}_{21}\cdot\dot{U}_1^{(k+1)}+\dot{Y}_{23}\cdot\dot{U}_3^{(k)}-S_2/(U_2^{(k)})}{\dot{Y}_{22}}\\ \dot{U}_3^{(k+1)}&=\frac{\dot{Y}_{31}\cdot\dot{U}_1^{(k+1)}+\dot{Y}_{32}\cdot\dot{U}_2^{(k+1)}-S_3/(U_3^{(k)})}{\dot{Y}_{33}} \end{aligned}\right\} \qquad (2.61)$$

1. Kuchlanishlarning boshlang‘ich qiymatlari beriladi:
$\dot{U}_i^{(k)} = \dot{U}_0$ (i = 1, 3), k = 0 bo‘lganda.

2. (2.61) o‘ng qismiga qiymatlar $\dot{U}_i^{(k)}$ (i = 1, 3) qo‘yiladi va kuchlanishning keyingi qiymatlari $\dot{U}_i^{(k+1)}$ (i = 1, 3) aniqlanadi, har bir *i* - tugunda topilgan kuchlanish qiymatlari (*i*+1) dan N gacha tugunlar kuchlanishlari hisobida foydalaniladi.

3. k ning qiymatini birga oshiramiz va p.2 ga o‘tamiz.

Iteratsiya jarayoni yechimga yaqinlashishini aniqlash uchun ikkita kriteriy ishlatiladi: taxminiy va aniq.

Taxminiy kriteriydan foydalanilganda ikkita ketma-ket iteratsiyalardagi kuchlanish modullari qiymatlari farqi $\left|\Delta \dot{U}_i\right|$ $(i = \overline{1, n})$ bo‘yicha iteratsiyalarni yechimga yaqinlashganligi to‘g‘risida xulosa qilinadi:

$$\left|\Delta \dot{U}_i^{(k)}\right| = \left|\Delta \dot{U}_i^{(k)} - \Delta \dot{U}_i^{(k-1)}\right| \le \varepsilon \quad (i = \overline{1, n}), \qquad (2.62)$$

bu yerda ε – ruxsat etilgan xatolik, yuqoridagi shart bajarilsa hisoblashlar tugatiladi, aks holda davom ettiriladi.

Umuman olganda (2.62) shartlarning bajarilishi har doim yechimning olinishini kafolatlaydi.

Aniq kriteriy quyidagicha aniqlanadi. Tugun kuchlanish tenglamalarining xatolik vektorlarini belgilaymiz:

$$\dot{W} = \dot{Y} \cdot \dot{U} - \left|\dot{Y}_{k0}\right| \cdot \dot{U}_0 + \dot{I} \,. \qquad (2.63)$$

2.1-rasm sxemasi uchun (2.63) tenglamalar matritsasi quyidagicha ko‘rinish oladi:

$$\begin{vmatrix} \dot{W}_1^{(k)} \\ \dot{W}_2^{(k)} \\ \dot{W}_3^{(k)} \end{vmatrix} = -\begin{vmatrix} \dot{y}_{11} & -\dot{y}_{12} & -\dot{y}_{13} \\ -\dot{y}_{21} & \dot{y}_{22} & -\dot{y}_{23} \\ -\dot{y}_{31} & -\dot{y}_{32} & \dot{y}_{33} \end{vmatrix} \cdot \begin{vmatrix} \dot{U}_1^{(k)} \\ \dot{U}_2^{(k)} \\ \dot{U}_3^{(k)} \end{vmatrix} - \begin{vmatrix} \dot{y}_{10} \\ 0 \\ 0 \end{vmatrix} \cdot \dot{U}_0 + \begin{vmatrix} S_1 / U_1^{(k)} \\ S_2 / U_2^{(k)} \\ S_3 / U_3^{(k)} \end{vmatrix}. \tag{2.64}$$

Demak, TKTning yechimida barcha xatolik vektorlarining qiymatlari $\dot{W}_i \, (i = \overline{1,n})$ nolga teng bo‘ladi.

Agar quyidagi shart bajarilsa, TKT sistemasi amaliy yechilgan hisoblanadi:

$$|W_i^{(k)}| \leq \delta \qquad (i = \overline{1,n}), \tag{2.65}$$

bu yerda δ - hisoblashlarda berilgan xatolik.

(2.65) shart aniq kriteriyda hisoblashlar yakunlanganligini bildiradi.

Gauss – Zeydel uslubida ham yuqorida keltirilgan yaqinlashish kriteriylari ishlatiladi. Gauss-Zeydel uslubi oddiy iteratsiyaga nisbatan kamroq iteratsiya talab qiladi.

2.5.4. TUGUN O‘TKAZUVCHANLIK MATRITSASINING DIAGONAL ELEMENTLARI KUCHAYTIRILGANDA GAUSS-ZEYDEL USLUBINI QO‘LLASH

Yechimga yaqinlashishni tezlatish uchun amaliyotdagi algoritmlarda Y matritsa diagonal elementlarini yuklama tugunlarining o‘tkazuvchanliklari hisobiga kuchaytirish usuli qo‘llaniladi:

$$\left.\begin{aligned}
\dot{U}_1^{(k+1)} &= \frac{\dot{Y}_{10}\cdot\dot{U}_0+\dot{Y}_{12}\cdot\dot{U}_2^{(k)}+\dot{Y}_{13}\cdot\dot{U}_3^{(k)}}{\dot{Y}_{11}+S_1/\left(U_1^{(k)}\right)^2}\\
\dot{U}_2^{(k+1)} &= \frac{\dot{Y}_{21}\cdot\dot{U}_1^{(k+1)}+\dot{Y}_{23}\cdot\dot{U}_3^{(k)}-S_2/U_2^{(k)}}{\dot{Y}_{22}}\\
\dot{U}_3^{(k+1)} &= \frac{\dot{Y}_{31}\cdot\dot{U}_1^{(k+1)}+\dot{Y}_{32}\cdot\dot{U}_2^{(k+1)}}{\dot{Y}_{33}+S_3/\left(U_3^{(k)}\right)^2}
\end{aligned}\right\} \qquad (2.66)$$

1. Kuchlanishlarning boshlang‘ich qiymatlari beriladi:
   $\dot{U}_i^{(k)} = \dot{U}_0$ (i = 1, 3), k = 0 bo‘lganda.

2. (2.66) o‘ng qismiga qiymatlar $\dot{U}_i^{(k)}$ (i = 1, 3) qo‘yiladi va kuchlanishning keyingi qiymatlari $\dot{U}_i^{(k+1)}$ (i = 1, 3) aniqlanadi, har bir *i* - tugunda topilgan kuchlanish qiymatlari (*i*+1) dan N gacha tugunlar kuchlanishlari hisobida foydalaniladi.

3. k ning qiymatini birga oshiramiz va p.2 ga o‘tamiz.

Iteratsiya jarayoni yechimga yaqinlashishini aniqlash uchun ikkita kriteriy ishlatiladi: taxminiy va aniq.

Taxminiy kriteriydan foydalanilganda ikkita ketma-ket iteratsiyalardagi kuchlanish modullari qiymatlari farqi $|\Delta\dot{U}_i|$ $(i=\overline{1,n})$ bo‘yicha iteratsiyalarni yechimga yaqinlashganligi to‘g‘risida xulosa qilinadi:

$$\left|\Delta\dot{U}_i^{(k)}\right| = \left|\Delta\dot{U}_i^{(k)} - \Delta\dot{U}_i^{(k-1)}\right| \le \varepsilon \quad (i=\overline{1,n}), \quad (2.67)$$

bu yerda ε – ruxsat etilgan xatolik, yuqoridagi shart bajarilsa hisoblashlar tugatiladi, aks holda davom ettiriladi.

Umuman olganda (2.67) shartlarning bajarilishi har doim yechimning olinishini kafolatlaydi.

Aniq kriteriy quyidagicha aniqlanadi. Tugun kuchlanish tenglamalarining xatolik vektorlarini belgilaymiz:

$$\dot{W} = \dot{Y} \cdot \dot{U} - \left|\dot{Y}_{k0}\right| \cdot \dot{U}_0 + \dot{I} \,. \tag{2.68}$$

2.1-rasm sxemasi uchun (2.68) tenglamalar matritsasi quyidagicha ko'rinish oladi:

$$\begin{vmatrix} \dot{W}_1^{(k)} \\ \dot{W}_2^{(k)} \\ \dot{W}_3^{(k)} \end{vmatrix} = -\begin{vmatrix} \dot{y}_{11} & -\dot{y}_{12} & -\dot{y}_{13} \\ -\dot{y}_{21} & \dot{y}_{22} & -\dot{y}_{23} \\ -\dot{y}_{31} & -\dot{y}_{32} & \dot{y}_{33} \end{vmatrix} \cdot \begin{vmatrix} \dot{U}_1^{(k)} \\ \dot{U}_2^{(k)} \\ \dot{U}_3^{(k)} \end{vmatrix} - \begin{vmatrix} \dot{y}_{10} \\ 0 \\ 0 \end{vmatrix} \cdot \dot{U}_0 + \begin{vmatrix} S_1 / U_1^{(k)} \\ S_2 / U_2^{(k)} \\ S_3 / U_3^{(k)} \end{vmatrix}. \tag{2.69}$$

Demak, TKTning yechimida barcha xatolik vektorlarining qiymatlari $\dot{W}_i \, (i = \overline{1,n})$ nolga teng bo'ladi.

Agar quyidagi shart bajarilsa, TKT sistemasi amaliy yechilgan hisoblanadi:

$$|W_i^{(k)}| \leq \delta \qquad (i = \overline{1,n}) \,, \tag{2.70}$$

bu yerda δ - hisoblashlarda berilgan xatolik.

(2.70) shart aniq kriteriyda hisoblashlar yakunlanganligini bildiradi.

Tugun o'tkazuvchanlik matritsasining diagonal elementlari kuchaytirilganda Gauss – Zeydel uslubini qo'llashda ham yuqorida keltirilgan yaqinlashish kriteriylari ishlatiladi. Tugun o'tkazuvchanlik matritsasining diagonal elementlari kuchaytirilganda Gauss – Zeydel uslubini qo'llashda oddiy iteratsiyaga nisbatan kamroq iteratsiya talab qiladi.

2.5.5. NYUTON-RAFSON USLUBI

Nyuton-Rafson uslubi nochiziqli tenglamalar sistemasini yechishda yechimga nisbatan tezroq yaqinlashadigan uslublardan biri hisoblanadi. Bu uslub nochiziqli tenglamalar sistemasini ketma-ket chiziqli tenglamalar sistemasi bilan alishtirishga asoslanadi. Hisob-lashlar oldingilarga nisbatan yechimga yaqinroq bo‘lgan noma’lumlarning qiymatlarini beradi.

Nochiziqli tenglamalar sistemasini yechishda Nyuton-Rafson uslubini qo‘llashni ko‘rib chiqamiz:

$$\left\{\begin{array}{l} w_1(x_1 \cdots x_n) = 0 \\ w_2(x_1 \cdots x_n) = 0 \\ \dots\dots\dots\dots\dots\dots \\ w_n(x_1 \cdots x_n) = 0 \end{array}\right\} \qquad (2.71)$$

Dastlabki vektor qiymatlarini beramiz:

$$X = |x_1 \ldots x_n|^T = X^{(0)}.$$

Bu nuqtada funksiyalarni to‘g‘ri chiziqli funksiyalarga keltiramiz va (2.71) dagi funksiyalardan har birini nolga tenglaymiz:

